

This is not registered version of TotalDocConverter
 Bu tayyorgarligi qurilishiga qo'shimcha yoki kuyadigan qadimiy Mirzacholda hozir qanchalar obod qishloqlar paydo boldi. Shu gozal qishloqlardan birida Xondamir degan bola yashaydi. Uning ikki tepe tishi tushib, gapirganda kulgiliroq koringani bilan asli ozi juda yaxshi bola. Yozda doimo maykada yuradi, agar maykasini yechib qoysa, badanidagi oqarib turgan izi ham maykadek korinadi.

Xondamirning akalari, opalari va yana kichkina chaqaloq ukasi bor. U hammalarini yaxshi koradi, ammo buvajonini hammalaridan ham alo koradi. Seni kim tuqan, deb soraganlarida buvam, deb javob beradi. Uning uchun dunyoda shu buvajonidan aziz hech kimsa yoq.

Kop yillar ilgari Fargonadan Mirzacholga kochib kelgan buvasining bir toychasi bolgan ekan. Osha toycha hozirgi toriq, Xondamirdan on besh yosh katta hamon mehnat qilardi. Hovlidagi sigir, echki qipqizil tojini serkillatib yuboradigan boboq xorozu Qoplon degan boribosardan ham Xondamir shu toriqni yaxshi korardi.

Buvasining ancha vaqt dan beri kasalxonada yotgani Xondamirning kichkina yuragiga gussa solib: B_«shu kasal degan narsa qayqdandan keldi? U nega kerak?! B_«- derdi buvasini sognib, bazida toriq oldida soatlarcha xayol surib otirardi. Agar hamma ish uning qolida bolganida katta doktorlarni va hatto professorlarni chaqirib, buvasini korsatib, tezda tuzatirib olgan bolardi. Mana shu masala Xondamirni juda kop oylatar, ot roparasida otirib, unga yuragini ochganday bolardi. B_«Buvamning anchadan beri kasalxonada yotganini bilasan, xafa bolmaysan, kusurlatib bedangni yeysan! Men bolsam buvamni sognib, kechasi uxmlamay, yeiglab chiqaman.

Adam, opam, akalarim buvamni oylashmaydi! Chaqaloq ukamdan xafa bolish kerak emas, u hali yosh! Men juda hafa bolib ketayapman Bu gapni eshitgan toriq oxurdan bosh kotarib bir laxza bedani kurs-kurs chaynashini toxtatib, Xondamirga boqd: B_«B Buvani men ham sogindim, lekin men bogloqman, ilojim yoq. Buva hech qachon meni koymagan, och qoldirmagan Fargonadan kelganimizda toy edim, ot boldim. Buvanining hamma ishlarini jon fido qilib bajarardim

Ha, darhaqiqat, Xondamir toriqning kursillatib beda yeishimi yoqtirar, soatlarcha roparasida choqqayib otirib tomosha qilardi. Qari ot Xondamirga organgan, yoniga kirganida atayin bedani chirolyi, kursillatib yer bolaning hursand bolganidan pishqirib, qorniga qongan pashshalarni dumi bilan xaydab, qariligini sezdirmay kishnab ham qoyardi. Xondamir hovlida uyoqdandan- buyoqqa otganida orqasidan qarab kuzatar, otxona tuynidan termilib turardi. Hatto qoplon Xondamirning orqasidan ergashayotganida rashki kelib, yer tepinardi. Toriq hammadan kora ham Xondamirning oti hisoblanardi.

Soginch alami Xondamir yuragini siqabergach, u ortiq chidab turolmadi. Akasiga, adasi va opasiga bir-ikki bor buvasini juda sogainganini aytdi. Lekin ular bu gapga uncha etibor berishmadi. Bundan Xondamir ranjidi. Kunlardan bir kun u akalariga sezdirmay, savatga bir necha anor, olma piyolaga bidondagi asaldan solib, qogoz bilan yaxshilab berkitdi. Shundan song, otxonaga kirib toriqning arqonini yechi jilovladi. Lekin egarni yerdan olib ot ustiga qoyolmadi.

Oxur ustiga chiqib ot ustiga yaydoq mindi. Xondamirning tayyorgarligini sezayotgan toriq qornini oxurga yaqinlashtirib, bola ustiga minib olishi uchun mahkam turib bergen edi. Xondamirning bir qolida savat bir qolida jilov, toriqning boyniga shappatilab urdu: B_«B Chuv, jonivor! Buvamizni korib kelamiz!

Xondanir bilan toriq hech kimga sezdirmay asta-sekin hovliga undan kochaga chiqishdi. Soyada yotgan qoplon darhol ornidan turib, ergashgan edi, Xondamir unga oqrayib unga doq urdi: B_«B Hovliga kir bizning orqamizdan yurma! B_«B Qoplon joyida toxtab, hayron bolib qoldi.

P_«ondamir toriqda yol yurib, yol yursada mol yurib, qishloq kasalxonasi yetdi. U adasi mashinada, akalari velosipedda bir necha bor kasalxonaga borishganini eshitgan edi. Lekin kasalxona qishloqdan ancha olsida, koprikdan otgach tuman markaziga borish, ikki qavatli B_«B bolalar dunyosi magazini yonidan otish kerakligini ham yaxshi bilardi.

Kasalhona eshigi oldida otga yaydoq minib, qolida savat kotargan, kalta ishton, maykadagi bolaga kozi tushgan qorovul, ularga baqrayib qarab qoldi. Yurib kelib bolani ot ustidan olib yerga qoydi.

- Oglim sizga kim kerak?, - dedi bolani atayin B_«siz lab.

- Buvam.

- Buvangizni familiyalari nima?

- Buvamning familiyalari yoq.

- Otlari bormi?

- Otlari Umurzoq buva.

- E, tanidim! Mirzacholda Umurzoq otani tanimaydigan odam yoq. Kiraqoling ichkariga, otni men ushlab turaman.

Sh lahma kasalxona derazasidan qarab turgan Umurzoq ota shosha-pisha hassasini ushlab hovliga chiqdi. Buvani karavotdan turolmay yotadi deb aytishgan edi. Yurib kelayotganiga kozi tushgan Xondamir xursand bolib ketdi. Toriq ham birdan kishnab yubordi. Kozlari chaqnab, dumlari bilan yelpib, toychoqdek jilpanglab buva tomon intildi. Xondamir ham savatini yerga qoyib, buva bagriga otildi. Umurzoq buva qorovul olib kelib qoygan kursiga otirib Xondanirni quchoqlab, peshonasidan qayta-qayta opdi. Yoniga yaqin kelib buvani hidlayotgan toriqning ham lunjlari, kozlari tepasini silab, erkaladi.

- Somonboy, bu mening nevaram- Xondamir, bu- juda yaxshi bola. Bu b_« qahramon bolaB ! Shu kecha tushumda suvda suzib yurgen ekanman. Mana sevikli nevaramni kordim, - u kozidagi yoshni yelkasiga tashlagan romoli bilan artdi. b_« Mana, bu- toriq, bu jonivor ham jonivorlar ichida eng yaxshisi. U ham men bilan birga Fargonadan kelgan. Cholquvarlardan

Soginchu mehr kichik nevarani yulga otlantirgani, ota bobolari, akalari hovliqib, bezovta bolishini sezgani holda, adashib qolishdan ham hayiqmay, otga yaydoq minib kelgan nevarani tizzasiga olib erkalar, peshonasini silar, chol yuragi barq urardi. Qorongi tushganda butun rayonni izlab, hatto miliitsiyani ham yordamga chaqirgan adasi, akalari, yolda korgan bilganlardan surishtirib, oxiri Xondamir otda kasalxonaga, buvasi yoniga ketganini payqab bu yerga hovliqib kelishdi. Ular buvadan hijolat ham bolishdi. Xondamirning koyishga mutloqo haddilari sigmadi. Uni yaxshi gapirib, toriqni ham erkalab, oz hovlilariga qaytarib olib ketishdi.

Nevara bilan toriqning poyqadami yoqdimi, bir haftadan keyin buvaning ozi ham kasalxonadan chiqib, uyga qaytib keldi.